

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## ADABIY PARALLEL JANRI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR

Gulnoza Teshayeva

*Buxoro davlat universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti  
gulnozateshayeva1999@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur tezisda B. Do‘stqorayevning “Ikki buyuk siymo”, B. Rajabovanning “Mushtarak adabiy hodisalar haqida” maqolalari va X. Mamatqulovanning Alisher Navoiyning “Layli va Majnun”, Shekspirning “Romeo va Julyetta” tadqiqotlari adabiy parallel janri namunalari sifatida tahlil qilingan, bu janrga xos bo‘lgan ayrim xususiyatlar ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** adabiy parallel, mushtarak adabiy hodisalar, qiyosiy metod, janriy xususiyatlar, kompozitsiya, poetika.

Adabiy tanqidning faol janrlaridan biri adabiy parallel bo‘lib, unda jonli adabiy jarayon, undagi adabiy yangiliklar, kurashlar, holatlar, intilishlar, shu bilan birga yutuq va kamchiliklar tahlil qilinadi, tizimlashtiriladi, umumlashtiriladi, ayni vaqtda, tanqidchi adabiyotda yaratilayotgan haqiqiy san‘at asarlarini kashf etishni ham o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Adabiy parallelning maqsadi adabiyot maydonidagi ikki yoki undan ortiq asar, adib hayoti va ijodi, adabiyotshunoslikning nazariy muammolari bilan bog‘liq masalalarni qiyosan tahlil qilishdan iborat. Mazkur janr o‘rganilayotgan obyektlarning mushtarakligini ko‘rsatish, tafovutli jihatlarini qiyoslash yoki mohiyatiga ko‘ra bir-birini to‘ldiradigan hodisalarni yonma-yon tahlil qilish kabi vazifalarni bajaradi. Adabiyotshunos Boybo‘ta Do‘stqorayev “Ikki buyuk siymo” maqolasida<sup>1</sup> Cho‘lpon va Abdulla Qodiriyning XX asr boshlaridagi ijodiga xos zohiriy va botiniy mushtarakliklar, ko‘zga tashlanadigan va tashlanmaydigan ichki aloqa va munosabatlari to‘g‘risida fikr yuritadi. Muallif ikkala ijodkorlar ham adabiyot maydoniga bir davrda – XX asrning 10-yillarida kirib kelgani, dastlab ularning adabiy-estetik qarashlari o‘xshash bo‘lganligi xususida fikr bildiradi. B. Do‘stqorayev mazkur mulohazalarini dalillash uchun Cho‘lponning “Turkistonli qarindoshlarimizga”, Qodiriyning “To‘y”, “Ahvolimiz” she‘rlarini misol qilib ko‘rsatadi. Uning fikricha, Cho‘lpon ham, Qodiriy ham jadidlar adabiyotidagi yetishmagan xususiyatlarni to‘ldirishga uringanlar: “Ma’lumki, jadidlar dramasida ham fikr, g‘oya birinchi o‘rinda turgani uchun badiiylikka yetarlicha ahamiyat berilmagan. Cho‘lpon bu kamchilikni to‘ldirgan holda, to‘laqonli drama yaratish uchun badiiyligni kuchaytirishga uringan. Buning uchun folklorga murojaat qilarkan, undagi romantik unsurdan badiiyligni oshirish yo‘lida foydalanishga intilgan. Shu tariqa, “Yorqinoy”da hissiyotga boy dramatik holatlar yaratgan”.<sup>2</sup> Abdulla Qodiriy

<sup>1</sup> [Boybo‘ta Do‘stqorayev. Ikki buyuk siymo \(ziyouz.com\)](http://ziyouz.com)

<sup>2</sup> Do‘stqorayev B. “Ikki buyuk siymo”. – O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati, 2009, 13-son.

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ham ijodiy izlanishlari jarayonida mumtoz va xalq dostonlaridan iqtibos olgan holda asarlaridagi badiiylikni kuchaytirish yo‘llari tahlil qilingan. Maqolada qiyoslanayotgan ijodkorlar asarlaridagi g‘oyaviy jihatlarining o‘xshashligi haqida ham fikr yuritilgan. Chunonchi, ularning asosiy g‘oyasi Vatan mustaqilligi, yurt ozodligi va millat farovonligi edi.

Filologiya fanlari nomzodi Burobiya Rajabova “Mushtarak adabiy hodisalar haqida”<sup>3</sup> nomli maqolasida Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” tazkirasida va Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma” asarida yozib qoldirgan adabiyotshunoslikka oid qimmatli ma’lumotlarning ayrimlarining biri-biriga juda yaqin yoki har ikki ijodkorga taalluqli bo‘lgani haqida tadqiqot olib borar ekan, olim bunday umumiy ma’lumotlarni bir mushtarak (arabcha: umumiy, ko‘pchilikka taalluqli, o‘rtadagi kabi lug‘aviy ma’nolarni bildiradi) adabiy hodisa sifatida baholaydi. Ma’lumki, mushtarak adabiy hodisalar jahon adabiyotidagi turli adabiyotlarga xos, bir xududda yashovchi adiblar ijodiga xos, ma’lum bir davrda yashagan ijodkorlarga xos yoki ayrim olingan shoirlar ijodiga xos bo‘lishi mumkin. B.Rajabova tasnifda ko‘rsatilgan mushtarak adabiy hodisalarning ayrim olingan ijodkorlar ijodiga xos ko‘rinishini temuriylar Uyg‘onish davri vakillari Abulvafoiy Xorazmiy, Alisher Navoiy va shoh va shoir Bobur ijodida kuzatadi. Xususan, maqolada Alisher Navoiy va Bobur ijodida bitilgan nihoyatda kam uchraydigan *tavorud* kabi noyob mushtarak adabiy hodisani hamda Abulvafoiy Xorazmiy va Bobur ijodida mahorat bilan nazm va nasrda qo‘llangan, Sharqda mashhur bo‘lgan bir *maqol* asosida yaratilgan *irsoli masal* singari mushtarak adabiy hodisani aniqlab, tahlil qilgan. E’tiborli jihati shundaki, maqolada adabiy parallellik tushunchasi mushtarak adabiy hodisa sifatida baholangan.

X.Mamatqulovanning Alisher Navoiyning “Layli va Majnun”, Shekspirning “Romeo va Julyetta” asarlarining qiyosiga bag‘ishlangan tadqiqoti ham adabiy parallelning namunasi hisoblanadi. Ishning muhim ilmiy yangiligi shundaki, unda Navoiyning “Layli va Majnun” hamda Shekspirning “Romeo va Juletta” tragediyasi ilk bor keng miqyosda qiyosiy tahlil qilingan. “Layli va Majnun”, “Romeo va Julyetta” asarlari bevosita taqqoslab o‘rganilgan. Xususan, ikkala asar badiiy tuzilishi, janriy xususiyatlari, kompozitsion tuzilishi poetika jihatidan tahlil etilib, asarlardagi an’anaviylik va o‘ziga xosliklar hamda ularni birlashtiruvchi va farqli omillar ilmiy asoslangan. X. Mamatqulova dissertatsiyada qiyoslanayotgan ijodkorlar yashagan davr, ijtimoiy hayotning mushtarak jihatlarini o‘rgangan. A.Navoiy va V.

<sup>3</sup> [Burobiya Rajabova. Mushtarak adabiy hodisalar xususida | Xurshid Davron kutubxonasi \(kh-davron.uz\)](#)

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Shekspirning asarlarida aks etgan gumanizm g‘oyalaridagi tipologiya, asarlardagi muhabbat mavzusi, badiiy timsol yaratish mahorati, majoziy va haqiqiy ishq masalasiga munosabatni ham tahlil qilingan. “Xullas, umumjahon madaniyati, adabiyoti va san’ati rivojiga muhim hissa qo‘shgan, G‘arb va Sharq ma’rifiy ko‘tarilishining yirik vakillari bo‘lmish ikki mutafakkir daho Alisher Navoiy va Vilyam Shekspir ijodiga nazar tashlar ekanmiz, ular yashagan davr, makon, zamonda umumiy o‘xshash jihatlarning nihoyatda ko‘pligi, mutafakkirlar badiiy tafakkurida ham mushtarak jihatlarning mavjudligi e’tiborimizni tortmay qolmaydi. Bu esa o‘z navbatida adabiyot badiiy so‘z umumbashariy va umumjahoniy ilg‘or taraqqiyot uchun barcha davrlarda diniy, irqiy, milliy, mazhabiy, mafkuraviy chegara bilmay xizmat qilganligi g‘oyasini asoslaydi”<sup>4</sup>.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, adabiyotshunoslikda ma’lum bir yozuvchi yoki shoir ijodini milliy va xalqaro adabiy an’analar bilan qiyoslab o‘rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega. Chunki shunday qiyoslashlar orqali yozuvchining ijodiy mustaqilligi va uning milliy, jahon adabiyoti rivojidadagi o‘rni anglab yetiladi. Bu borada adabiy parallel janrning o‘rni esa beqiyosdir. Asarlarni qiyosiy metod orqali tahlil qilish bizga ko‘proq imkoniyat beradi. Shu sababdan ham o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida adabiy parallelni mustaqil janr sifatida tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Do‘stqorayev B. “Ikki buyuk siymo”. – O‘zbekiston adabiyoti va san’ati, 2009, 13-son.
2. [Rajabova B. Mushtarak adabiy hodisalar xususida | Xurshid Davron kutubxonasi \(kh-davron.uz\)](http://rajabova.b.uz)
3. Ахмедова Ш. Ўзбек адабий танқидчилиги жанрлари. – Тошкент: Фан, 2008.
4. Маматқулова Х. Навоийнинг “Лайли ва Мажнун”, Шекспирнинг “Ромео ва Жульетта” асарларини қиёсий тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори ... дисс. Самарқанд, 2010.

<sup>4</sup> Маматқулова Х. Навоийнинг “Лайли ва Мажнун”, Шекспирнинг “Ромео ва Жульетта” асарларини қиёсий тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори ... дисс. Самарқанд, 2010. –Б.-21.